

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**XUDOYBERDIYEVA DILAFRUZ BOYKULOVNA**

**STRUKTURASIGA METIL HAMDA GALOID ELEMENTLARI  
KIRITILGAN SUYUQ MUHIT ATOM VA MOLEKULALARINING LAZER  
NURLANISHI TA’SIRIDAGI TEBRANMA-AYLANMA HARAKAT  
SPEKTROSKOPIYASI**

**01.04.05 – Optika**

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
physical-mathematical sciences**

**Xudoyberdiyeva Dilafruz Boykulovna**

Strukturasiga metil hamda galoid elementlari kiritilgan suyuq muhit atom va molekulalarining lazer nurlanishi ta'siridagi tebranma-aylanma harakat spektroskopiyasi.....3

**Худойбердиева Дилафруз Бойкуловна**

Спектроскопия колебательно-вращательного движения под воздействием лазерного излучения атомов и молекул жидкой среды с метил и галоидозамещёнными элементами.....21

**Khudoyberdieva Dilafruz Boykulovna**

Spectroscopy of the vibration-rotational motion of atoms and molecules of a liquid medium included methyl and holloid elements in its structure under the influence of laser radiation .....39

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**XUDOYBERDIYEVA DILAFRUZ BOYKULOVNA**

**STRUKTURASIGA METIL HAMDA GALOID ELEMENTLARI  
KIRITILGAN SUYUQ MUHIT ATOM VA MOLEKULALARINING LAZER  
NURLANISHI TA‘SIRIDAGI TEBRANMA-AYLANMA HARAKAT  
SPEKTROSKOPIYASI**

**01.04.05 – Optika**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/FM723 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Otajonov Shavkat**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Azamatov Zakirjan Taxirovich**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Murodov G'ulomxon**

fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "27" 02 soat 11<sup>30</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15-uy. Tel.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (99866) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz, Samarqand davlat universiteti Muhandislik fizikasi instituti, 1-qavat, 114-xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (11 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15-uy. Tel.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (99866) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" 02 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "15" 02 dagi 11 raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.X.Ashurov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
f.-m.f.d., akademik

**R.M.Rajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengashning ilmiy kotibi,  
f.-m.f.n., dotsent

**D.I.Semenov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
huzuridagi Ilmiy seminar raisi,  
f.-m.f.d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonning ko'plab mamlakatlarida molekulalararo ta'sirlashuv va uning tabiati hamda kuchini murakkab molekulali kondensirlangan muhitlarda namoyon bo'ladigan optik spektrlarga ta'sirini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Uning sabablaridan biri molekulalararo ta'sirlashuv qonuniyatlari turli xil fotofizik jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi, jumladan, molekulalararo ta'sirlashuv energiyasini uzatilishi bilan bir qatorda kondensirlangan muhitlarning fizik-kimyoviy xossalarini shakllanishida ham o'z o'rniga ega. Shuningdek, ichki molekulyar va molekulalararo ta'sirlashuv jarayonlariga tegishli qonuniyatlarni bilish ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kimyoviy moddalarni sintez qilishni oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi.

Bugungi kungacha jahon miqyosida amaldagi mavjud nazariy va fundamental ilmiy natijalarga asoslanadigan bo'lsak, moddalarning suyuq holatini tadqiq qilishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga molik suyuq fazada o'ta kichik vaqt oralig'ida sodir bo'luvchi fizikaviy hamda kimyoviy jarayonlar kinetikasini tadqiq qilish ham o'zining yechimini topmagan. Ko'p atomli murakkab strukturali organik suyuq moddalardagi ichki molekulyar va molekulalararo ta'sirlashuv qonuniyatlari hamda bu qonuniyatlarni optik spektrlarda namoyon bo'lishi bilan bog'liq fikrlar turli xil, hatto qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Fandagi bu muammoni hal etib, suyuq muhitlarning xossalarini to'la aks ettiruvchi molekulyar nazariya yaratish uchun spektroskopik tadqiqotlarni davom ettirishni taqozo etadi. Shuningdek, lazer nurlanishi ta'sirida molekulaning tebranma-aylanma harakati natijasida namoyon bo'ladigan yorug'likning kombinatsion sochilish spektrlarini quyi chastotalar sohasi amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ilmiy tadqiqot ishlari chegaralangan va keyingi yillarda deyarli o'rganilmagan.

Respublikamizda oxirgi yillarda ilmiy tadqiqot ishlarining rivojlanishiga, jumladan, farmakologiyada, agrokimyoda va sanoatda keng qo'llaniladigan tarkibi turli benzol hamda piridin hosilali molekulalardan iborat organik suyuqliklarning strukturasidagi o'zgarishlarning optik spektrlarda aks etishi bilan bog'liq tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Molekulalararo ta'sirlashuv va uning tabiatini tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, molekula strukturasini hamda struktura o'zgarishidagi spektral xususiyatlarni tadqiq qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining aniq maqsadlarga yo'naltirilgan bir qator farmon va qarorlarida o'zining ifodasini topgan.

Jumladan, 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ni tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-son Farmoni, 2019-yil 17-iyun PQ-4358-son "2019-2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xorijiy, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari hamda O‘zbekiston olimlari tomonidan kondensirlangan muhitlarda sodir bo‘ladigan relaksatsion jarayonlarning kinetikasi, optik xossalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, xorijda Z.Gu, V.Chen, L.Du, H.Shi va F.Vana (Xitoy), G.Shakila, S.Periandi va S.Ramalingam (Hindiston), Kirill Juravlev, Katrina Traikov, Jaohui Dong va Yang Song (Amerika), A.Onal, M.Okur (Turkiya), MDH mamlakatlaridan A.V.Sechkarev, N.G.Baxshiyev, V.S.Gorelik, N.G.Torgunakov, V.S.Ctarunov, I.L.Fabelinskiy (Rossiya), L.A.Bulavin, I.Y.Doroshenko, V.Ye.Pogorelov (Ukraina), B.N.Narziyev, A.A.Adhamov, V.M.Korovina (Tojikiston), U.N.Tashkenbayev, L.M.Sobirov, A.Jumabayev, A.Hushvaqto‘v, A.Absanov, B.Quyliyev, Sh.Otajonov, B.Eshchanov, M.Alijonov (O‘zbekiston) ushbu sohada fundamental va amaliy ahamiyatga molik ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ushbu tadqiqot natijalari asosida molekulalararo ta’sirlashuv qonuniyatlarini tadqiq qilish asosida relaksatsion jarayonlarning bir qator fizik kattaliklari aniqlangan.

Jumladan, transformator yog‘ida erigan atsetonning kombinatsion sochilish (KS) spektri quyi chastotalar sohasidagi  $780 \text{ cm}^{-1}$  xarakterli spektral chizig‘ining haroratga bog‘liqligi tadqiq qilingan. Benzol strukturasi brom va xlor kiritilgan 1-brom-2-xlorbenzol moddasi uchun KS, infraqizil (IQ) spektrlari  $100\text{--}4000 \text{ cm}^{-1}$  chastotalar sohasida qayd etilgan va HF/DFT (B3LYP) usuli yordamida nazariy hisoblangan tebranish chastotalari bilan taqqoslanib, benzolning ayrim tebranish chastotalariga galoid almashtirishlar kuchli ta’sir etishi aniqlangan. Piridin suyuqligining strukturaviy o‘tishlari, KS va IQ yutilish spektrlari yordamida 26 GPa gacha bo‘lgan bosimdagi xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, bu o‘tishlarda spektr konturlarining intensivligi o‘zgarishi va tebranish spektrlari soni turli diapazonlardagi bosimga bog‘liqligi aniqlangan. 4-fenilbutalamin molekulasining to‘rtta barqaror izomerlari IQ ( $400\text{--}4000 \text{ cm}^{-1}$ ) va KS ( $60\text{--}3700 \text{ cm}^{-1}$ ) spektrlari orqali eksperimental hamda B3LYP/6-311++G(d,p) yaqinlashishlar bilan nazariy o‘rganilgan bo‘lib, eksperimental va nazariy ma’lumotlar natijasida 4-fenilbutilamin molekulasining eng barqaror shakli olingan. Noemperik hisoblashlar natijasida molekulyar komplekslarni shakllanishida O – H...O, N – H...O, O – H...N kabi vodorod bog‘lanishlar asosiy sabablardan biri ekanligi o‘rganilgan. Molekulaning erkinlik darajalari bo‘yicha aylanma harakatidan hosil bo‘lgan optik spektrlarning natijalovchi spektrlarga ulushi aniqlangan bo‘lib, mavjud nazariya bilan solishtirilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti hamda Kiyev milliy universitetlari bilan o‘zaro hamkorlikdagi FZ-20200929385 “Biologik obyektlarning nanoo‘lchamli molekulyar klasterlarini o‘rganish va tatbiq qilishning spektroskopik hamda noemperik tahlil usullarini ishlab chiqish” mavzusidagi (2022-2027-yy.) davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi fundamental loyiha hamda Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlarining “Kondensirlangan muhitlardagi relaksatsion jarayonlarni spektroskopik usullar bilan tadqiq qilish” ochiq rejaları doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Strukturasiğa metil va galoid elementlari kiritilgan suyuq muhitlar tarkibidagi atom hamda molekularning lazer nurlanishi ta’siridagi tebranma va aylanma harakat qonuniyatlarini spektroskopik usullar bilan tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

molekularning erkinlik darajalari bo‘yicha aylanma harakati bilan bog‘liq bo‘lgan optik spektrlarni tadqiq qilish va olingan natijalar asosida relaksatsion jarayonlarning qonuniyatlarini xarakterlovchi fizik parametrlarni aniqlash;

molekularning erkinlik darajalari bo‘yicha aylanma harakatidan hosil bo‘ladigan optik spektrlarni natijalovchi spektrlarga ulushini aniqlash;

suyuqlik molekularining o‘zaro korelyatsiyasi (yaqin tartib) qonuniyatlarini tadqiq qilish;

benzol va piridin halqasiga (strukturasiğa) kiritilgan turli xil tabiatli funksional guruhlarning optik spektrlarga ta’sirini aniqlash;

quyi chastotalar sohasidagi optik spektrlarning namoyon bo‘lish qonuniyatlarini tadqiq qilish;

kvant-kimyoviy nazariy hisoblashlar yordamida molekularning tarkibidagi atomlarning bog‘lanish uzunliklari, bog‘lanishlar orasidagi burchaklarni va xususiy tebranish chastotalarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida benzol va piridin strukturasiğa metil, amin va galoid kabi funksional guruhlar kiritilgan 6 ta organik moddalarning molekulari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** ko‘p atomli molekularning lazer nurlanishi ta’siridagi xossalari, molekularning tebranma-aylanma harakati qonuniyatlarini, molekulararo ta’sirlashuv jarayonlarini va muhit temperaturasi optik spektrlarga ta’sirini o‘rganishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida yorug‘likning molekulyar sochilish, kombinatsion sochilish, infraqizil yutilish spektroskopiya hamda kvant-kimyoviy modellashtirish usullari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

lazer nurlanishi ta’sirida molekulaning erkinlik darajalari bo‘yicha aylanma harakatidan hosil bo‘ladigan yorug‘likning molekulyar sochilish spektrini natijalovchi spektrga ulushini aniqlash usuli ishlab chiqilib, uning asosida relaksatsion jarayonlarning asosiy fizik parametrlari aniqlangan va molekulaning tormozlanib harakatlanish nazariyasi asosida tushuntirilgan;

ilk bor xlorbenzol, brombenzol va o-dibrombenzol molekularining C-H valent tebranishlari bilan bog‘liq KS spektral chizig‘i benzol halqasida o‘rin almashgan galoid guruhidagi atomlarning rezonans ta’siri tufayli yuqori chastota tomonga siljishi aniqlangan;

ilk bor anilin molekulasi C-H valent tebranishlari bilan bog'liq KS spektral chizig'i benzol halqasida o'rin almashgan amin NH<sub>2</sub> guruhining konjugatsiya ta'siri sababli quyi chastotalar tomon siljishi aniqlangan;

ilk bor benzol hosilalari molekulasi strukturasi C-H bog'larining tekislikdagi deformatsion tebranishlari amplitudasi o'rin almashgan atomlar elektromanfiyligiga sezgirligi aniqlangan;

ilk bor murakkab strukturaga ega bo'lgan molekular tarkibidagi atomlar guruhining aylanma-chayqalma harakati natijasida quyi chastotalarda ham kuchli intensivlikka ega bo'lgan KS spektrlarini namoyon bo'lishi tajribada aniqlangan. Bu esa nafaqat fundamental, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, alohida atomlarning tebranishidan hosil bo'ladigan majburiy kombinatsion sochilish effektini ham tadqiq qilishni ochib berishini bilan birga termodinamik kattaliklarni aniqlash hatto makromolekulalarning molyar massasini hisoblash imkoniyatini berishi mumkinligi ko'rsatilgan;

metil guruhiga kiruvchi yengil atomli molekularning aylanma-chayqalma harakatidan hosil bo'ladigan spektrlarning chastotalari, galoid guruhiga kiruvchi og'ir atomli molekularning harakatiga nisbatan keskin farq qilishi aniqlangan. Bu esa molekularning inersiya momenti qiymatlariga bog'liq ekanligi bilan tushuntirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Anizotroplikning fluktuatsiyasi hisobiga yorug'likning molekulyar sochilish spektrining namoyon bo'lish mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, molekularning erkinlik darajalari bo'yicha aylanma harakatidan hosil bo'ladigan spektrlarni natijalovchi spektriga ulushini va relaksatsion jarayonlarning molekulyar parametrlarini aniqlash usuli ishlab chiqildi. Bu usuldan spektroskopik tadqiqotlarda foydalanish mumkin;

Molekula strukturasi o'rin almashgan atom va guruhlarining tabiati bilan bog'liq KS spektridagi o'zgarishlarning tahlil natijalaridan spektral analizda ingradiyentlarni identifikatsiya qilishda foydalanish mumkin;

Quyi chastotalar oralig'ida molekularning aylanma-chayqalma harakati bilan bog'liq spektrlarni namoyon bo'lishi asosida majburiy kombinatsion sochilish spektrini ham kuzatish mumkinligi aniqlanib, bu bir qator termodinamik kattaliklarni hisoblash imkoniyatini beradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqotda zamonaviy eksperimental qurilma hisoblangan InVia Raman spektrometri hamda Spectrum Two FT-IR spektrometrlardan foydalanilganligi, Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materillari, OAK ro'yxatiga kiritilgan va boshqa xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar (Scopus), xulosa va tavsiyalarni vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko'p atomli molekular tarkibidagi o'zaro yaqin bo'lgan atomlarning korelyatsiyasi kattaligini o'rganish, molekulararo ta'sirlashuv qonuniyatlarini optik spektrlarda namoyon bo'lishi, relaksatsion jarayonlar kinetikasini tadqiq qilish asosida molekularning strukturaviy holatini real tasavvur qilish va bu ilmiy natijalarni mukammal molekulyar nazariya yaratish imkonini berish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini amaliy ahamiyati benzol yoki piridin halqasidan tashkil topgan molekula tarkibiga metil va galoid atomlari mavjud qonuniyatlar bilan kiritilganda yorug'likning molekulyar hamda kombinatsion sochilish spektrlariga ta'sirini o'rganishdagi ilmiy natijalar ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kimyoviy moddalarni sintez qilish va ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyektlari uchun yorug'likning kombinatsion sochilish spektrlari bo'yicha olib borilgan kvant-kimyoviy hisoblashlar asosidagi natijalar atomlarning o'zaro bog'lanish energiyasi, bog'lanish uzunligi hamda atomlar orasidagi burchaklarni aniqlash usullari tavsiya etilgan bo'lib, molekulyar nazariya yaratish imkoniyatini beradi.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan metil va galoid guruhlari tarkibiga kiruvchi organik moddalardagi molekulalararo ta'sirlashuv qonuniyatlarini tadqiq qilishga asoslangan ilmiy natijalar asosida:

yorug'likning molekulyar va kombinatsion sochilish hamda infraqizil yutilish spektrlarini tahlili asosidagi natijalar Chirchiq davlat pedagogika universitetida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanib kelinmoqda.

Xususan, lazer nurlanish ta'sirida quyi chastotalar oralig'ida namoyon bo'ladigan molekulalarning tebranma-aylanma harakatlari bilan bog'liq bo'lgan energiya kattaligini yorug'likning kombinatsion sochilish spektri yordamida hisoblash usulidan REP-04032022-206 raqamli "Optoelektron tarmoqlarda optik garmonika paydo bo'lishi va soliton tarqalishi jarayonlarini boshqarish" (2022-2024-yy.) mavzusidagi halqaro ilmiy loyihada muhitlarda ikkinchi hamda undan yuqori garmonikalarni hosil bo'lish qonuniyatlarini tahlil qilishda va solitonlar tarqalayotgan muhitning termodinamik parametrlarini aniqlashda foydalanilgan (Chirchiq davlat pedagogika universitetining 2024-yil 5-fevraldagi №01/260-sonli ma'lumotnomasi);

Molekulalarning energetik sathlardagi faollashuv energiyasini noemperik usul bilan aniqlash hamda kvant-kimyoviy hisoblashlarga asoslangan molekulaning fazoviy strukturasi modellash usullari FZ-20200929385 raqamli "Biologik obyektlarning nanoo'lchamli molekulyar klasterlarini o'rganish va tatbiq qilishning spektroskopik hamda noemperik tahlil usullarini ishlab chiqish" (2022-2027-yy.) mavzusidagi davlat ilmiy-texnika dasturidagi fundamental loyihada molekulyar komplekslarning hosil bo'lish mexanizmlarini hamda termodinamik barqarorligini aniqlashda qo'llanilgan (Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2024-yil 15-maydagi №10-2255-sonli ma'lumotnomasi);

Katta hajmda bayon qilingan nazariy va eksperimental natijalar Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Fizika fakulteti Fotonika kafedrasidagi 70530901-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi talabalari uchun "Lazer nurlanishlarning muhitlar bilan o'zaro ta'sirlashuvi", maxsus kursining ishchi o'quv dasturiga singdirilgan bo'lib, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida foydalanilmoqda. Bular jumlasiga molekulalarning erkinlik darajalari bo'yicha tormozlanib harakatlanish nazariyasi, bugungi kungacha deyarli o'rganilmagan molekulalarning aylanma-chayqalma harakatiga tegishli qonuniyatlar o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy optik qurilmalarda olingan natijalar bilan boyitilishiga

xizmat qilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 21-maydagi №04/11-4441-sonli ma‘lumotnomasi).

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (5 tasi Respublika miqyosidagi, 1 tasi Scopus ma‘lumotlar bazasidagi va 1 tasi xalqaro jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 139 betni tashkil qilgan bo‘lib, 46 ta rasm va 19 ta jadvalni o‘z ichiga olgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan bo‘lib, tadqiqotning respublika fan va texnika taraqqiyotining asosiy ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, usullari, tanlangan obyektlar, predmeti va tadqiqotning ilmiy yangiligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning amaliy natijasi va natijalar ishonchliligining asoslanganligi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinishi haqida ma‘lumotlar bilan birgalikda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Ko‘p atomli molekulalardan tashkil topgan suyuq fazalardagi molekulalararo ta‘sirlashuv qonuniyatlarini o‘rganishda spektroskopik tadqiqotlarning o‘rni. Yechim va muammolar”** nomli birinchi bobida suyuqliklarda yorug‘likning molekulyar sochilish (MS) va KS spektrlarining nazariy hamda amaliy tadqiqotlar natijalariga doir adabiyotlar sharhi keltirilgan. Yorug‘likning MS spektrining nozik strukturasi (Mandelshtam-Brillyuen) qonuniyatlari va molekulalararo ta‘sirlashuvlarni spektrlarga ta‘siri masalalari ko‘rib chiqilgan. Flukuatsiyaning izotrop va anizotrop tashkil etuvchilari bilan bog‘liq yorug‘likning molekulyar sochilish spektrini namoyon bo‘lish mexanizmlari hamda modda strukturasi molekulyar sochilish spektrlari yordamida o‘rganish bo‘yicha adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlar tahlil qilingan. Molekula strukturasi o‘zgarishlarni, ichki va molekulalararo ta‘sirlashuvlarning KS spektrlariga ta‘sirini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar tahliliga doir ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, bunday ma‘lumotlar dissertatsiya ishini maqsadi va vazifalarini belgilashda, uni amalga oshirish va olingan natijalarni tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Dissertatsiyaning **“Tarkibiga metil va galoid atomlari kiritilgan organik moddalar strukturasi tadqiq qilishning eksperimental metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlari va ularning asosiy fizik-kimyoviy xossalari haqida ma‘lumotlar hamda toza namunalarni tayyorlash metodikasi keltirilgan. Tadqiqot obyektlari sifatida galoid va metil almashtirilish bo‘yicha turli xarakterli benzol hamda piridin halqali modda molekulalari tanlangan. Yorug‘likning

MS, KS va IQ yutilish spektrlarini eksperimental qayd qilish usullari hamda tajriba texnikasi bayon qilingan. Tadqiqotda foydalanilgan ДФС-12 difraksion panjarali spektrometr qurilmasi, In Via Raman va Spectrum Two FT-IR spektrometrlari ishlash prinsipining hamda ularga tegishli asosiy parametrlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Tadqiq etilayotgan organik moddalar molekulalarining geometrik parametrlarini va molekula tarkibidagi atomlarning xususiy tebranish chastotalarini kvant-kimyoviy nazariy hisoblashda foydalanilgan Xartri-Fok metodi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qutblanuvchanlik tenzori bo'yicha asimmetrik bo'lgan kondensirlangan muhitlardagi molekulalararo ta'sirlashuv qonuniyatlarini anizotroplikning fluktuatsiyasi hisobiga sodir bo'ladigan yorug'likning MS spektrida namoyon bo'lishi”**ga bag'ishlangan bo'lib, elektromagnit to'lqin nurlanishi ta'sirida molekulalarning erkinlik darajalari bo'yicha aylanma harakati bilan bog'liq fizik parametrlarni aniqlash metodikasi, molekulasi qutblanuvchanlik tenzori bo'yicha asimmetrik bo'lgan suyuqliklar uchun eksperimental olingan MS spektrining hosil bo'lish qonuniyatlarini aniqlash bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Muhitlardagi anizotroplikning fluktuatsiyasi hisobiga hosil bo'lgan MS spektri muhit strukturasi tahlil qilishda, relaksatsion jarayonlarning qonuniyatlarini o'rganishda fundamental va amaliy ahamiyatga ega. Molekulaning aylanma harakati qonuniyatlarini o'rganish maqsadida molekulasi qutblanuvchanlik tenzori bo'yicha asimmetrik bo'lgan piridin, brombenzol va anilin kabi suyuqliklar uchun turli temperaturalarda, chastotaning  $0-60 \text{ sm}^{-1}$  oralig'ida eksperimental olingan MS spektrlari tahlil qilindi. Misol sifatida piridin molekulasi uchun 3 xil temperatura bo'yicha spektral intensivlikni chastotaga bog'liqlik taqsimoti 1-rasmda keltirilgan. Molekulalarning erkinlik darajalari bo'yicha tormozlanib harakatlanish nazariyasiga ko'ra, muhitni tashkil etgan molekulalar qutblanuvchanlik tenzorlari bo'yicha asimmetrik bo'lsa MS spektri 3 ta tashkil etuvchidan, ya'ni  $1/I \sim (\nu^2)$  bog'lanish grafigi uch qismdan tashkil topgan bo'ladi. Molekulaning erkinlik darajalariga mos keluvchi piridin molekulasi qutblanuvchanlik tenzorining qiymatlari bir-biridan farq qilib, quyidagi qiymatlarni qabul qiladi:  $a_\zeta = 118,8 \cdot 10^{-25} \text{ sm}^3$ ,  $a_\eta = 57,8 \cdot 10^{-25} \text{ sm}^3$ ,  $a_\xi = 108,4 \cdot 10^{-25} \text{ sm}^3$ . Bunga asosan chastotaning ma'lum bir oralig'ida piridin molekulasi har bir o'qlar atrofida aylanma harakatidan hosil bo'ladigan spektr  $1/I \sim (\nu^2)$  bog'lanish grafigida 3 ta tashkil etuvchidan iborat bo'lish kerak. Lekin tajriba natijalariga ko'ra, chastotaning  $0-60 \text{ sm}^{-1}$  oralig'ida 2 ta tashkil etuvchidan, ya'ni spektral kengligi “tor” va “keng” (mos ravishda  $\sigma_1$  va  $\sigma_2$ ) bo'lgan 2 ta lorents konturlaridan iborat ekanligi aniqlandi.  $60 \text{ sm}^{-1}$  dan boshlab keyingi yuqori chastotalarda MS spektrining intensivligi keskin kamaygan. Ushbu tafovutni molekulalarning erkinlik darajalari bo'yicha tormozlanib harakatlanish nazariyasidan foydalanib tushuntirish mumkin.



**1-rasm.** Piridin molekulasini uchun turli temperaturalar bo'yicha spektral intensivlikni chastotaga bog'liqlik taqsimoti: a) 20 °C, b) 50 °C, c) 80 °C.

Molekulalarning tormozlanib harakatlanish nazariyasiga asosan MS spektri konturining tarkibini murakkabligi ko'rsatilib, molekulalarning harakatini erkinlik darajalari bo'yicha uchta o'zaro kuchsiz bog'langan tormozlangan aylanma harakatidan iborat deb qaraladi. Molekulalarning erkinlik darajalari atrofidagi aylanma harakatining tormozlanish darajasi turlicha bo'ladi. Chunki molekulalarning har bir inersiya o'qlari atrofidagi shakli va ichki maydoni anizotropiysi turlicha. Bu esa molekulaning har bir o'qlarga nisbatan aylanma harakati natijasidagi MS spektri intensivligining ma'lum bir qiymatini hosil bo'lishiga olib keladi.

Tajribadan olingan natijalar asosida piridin molekulasining molekulyar  $\zeta$ ,  $\eta$ , va  $\xi$  o'qlar atrofidagi aylanma harakatini tahliliga ko'ra, 1- a) rasmning 0-17  $\text{sm}^{-1}$  chastota oralig'iga to'g'ri keluvchi 1-konturning (ya'ni kengligi  $\sigma_1$  tor bo'lgan kontur) hosil bo'lishi piridin molekulasining  $\eta$  o'qi atrofida tormozlanib harakatlanishi bilan bog'liq bo'ladi. 1-konturning spektral kengligi tor bo'lishiga sabab,  $\sigma_1 \sim 1/\tau_1$  bo'lganligi uchun ( $\tau$ -relaksatsiya vaqti) piridin molekulasining  $\eta$  o'qi atrofida aylanishi uchun ketgan relaksatsiya vaqti katta bo'lgan, chunki bu o'q atrofida harakati erkin bo'lmasdan, balki tormozlanib harakatlangan. 17-60  $\text{sm}^{-1}$  chastota oralig'idagi konturning hosil bo'lishi esa molekulaning  $\zeta$  o'qi atrofidagi aylanma harakati natijasi bo'lib, bu o'q atrofida molekulaning harakati o'qqa nisbatan erkin bo'lganligi uchun  $\tau$  kichik qiymatni qabul qiladi, bu esa  $\sigma_2 \sim 1/\tau_2$  ekanligidan 2-konturning spektral kengligi  $\sigma_2$  ning qiymati katta bo'lishiga olib keladi. Molekulaning  $\xi$  o'qi atrofida aylanishidan hosil bo'ladigan spektr to'g'risida molekulalarning tormozlanib harakatlanish nazariyasiga asoslangan holda va shu spektrning natijalovchi spektrga ulushi  $\alpha_\xi$  ni nazariy hisoblangan qiymatiga ko'ra xulosa chiqarish mumkin.

Molekulalarning tormozlanib harakatlanish nazariyasiga asosan piridin molekulasining har bir erkinlik darajalari bo'yicha molekulaning aylanma harakatidan hosil bo'ladigan spektrlarning natijalovchi spektrga ulushi quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$\alpha_i = \frac{(a_k - a_j)^2}{2g^2} \quad (1)$$

$$g^2 = \frac{1}{2} \left[ (a_\zeta - a_\eta)^2 + (a_\eta - a_\xi)^2 + (a_\xi - a_\zeta)^2 \right] \quad (2)$$

Ushbu formuladagi  $g^2$  – molekullarning anizotroplik darajasi,  $a$  – qutblanuvchanlik koeffitsiyentlari,  $i = \zeta, \eta, \xi$  qiymatlarni qabul qiladi. Piridin molekulasining o‘qlar bo‘yicha taqsimotini (1) tenglama orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\alpha_\zeta = \frac{(a_\zeta - a_\eta)^2}{2g^2}, \quad \alpha_\eta = \frac{(a_\eta - a_\xi)^2}{2g^2}, \quad \alpha_\xi = \frac{(a_\xi - a_\zeta)^2}{2g^2} \quad (3)$$

(3) tenglamalarga asosan qutblanuvchanlik tenzorlari  $a_\zeta$ ,  $a_\eta$  va  $a_\xi$  ning hamda anizotroplik darajasi  $g^2$  ning qiymatlarini bilgan holda piridin molekulasining har bir o‘q atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan MS spektrlarning, natijalovchi tajribada kuzatilgan spektrga ulushlarini nazariy hisoblashimiz mumkin. Nazariy hisoblashlarga asosan:  $\alpha_\zeta = 0,58$ ,  $\alpha_\eta = 0,4$ ,  $\alpha_\xi \approx 0,02$  yoki  $\alpha_\zeta + \alpha_\eta + \alpha_\xi = 1$  qiymatlarga teng.

Spektr ulushining ushbu qiymatlaridan ko‘rinadiki, piridin molekulasining  $a_\xi$  o‘qi atrofida molekullarning aylanma harakatidan hosil bo‘ladigan sochilish spektrining natijalovchi spektrga ulushi 0,02 ga teng bo‘lib, umumiy spektrning 2 %ini tashkil qildi xolos, bundan shunday xulosa chiqadiki, tajribada qo‘llanilgan eksperimental qurilmamizning sezgirliigi ushbu kichik qiymatni o‘lchash imkoniyatiga ega bo‘lmadi. Shuning uchun 1-rasmdagi grafik ikkita lorents konturining yig‘indisidan iborat bo‘ldi. Spektrlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, muhitning temperaturasi o‘zgarib borishi bilan piridin molekulasining  $\eta$  o‘qi atrofida aylanma harakatini xarakterlovchi relaksatsiya vaqti  $\tau_1$ , temperatura oshishi bilan kamayib boradi, ya’ni  $\tau_1 = 2,5 \cdot 10^{-12} \text{ s}$  dan  $1,1 \cdot 10^{-12} \text{ s}$  gacha kamayishi kuzatildi. Ushbu qonuniyatni molekullarni tormozlanib harakatlanish nazariyasi asosida tushuntirishimiz mumkin. Jumladan, muhit temperaturasi oshishi bilan molekulaning  $\eta$  o‘qi atrofida aylanma harakati tezlashadi, bu esa molekulaning  $\eta$  o‘qi atrofida aylanish uchun ketgan vaqti  $\tau_1$  ni kamayishiga olib keladi. Natijada shu o‘q atrofida molekulaning aylanma harakatidan hosil bo‘lgan spektrning kengligi  $\sigma_1$  oshib boradi, ya’ni  $\sigma_1 = 2,1 \text{ sm}^{-1}$  dan  $4,8 \text{ sm}^{-1}$  gacha oshib borishi kuzatildi.

Muhitning anizotrop molekullarini broun harakati natijasida zichlik fluktuatsiyalaridan tashqari anizotrop molekullarning joylashishining fluktuatsiyalari, ya’ni anizotrop fluktuatsiyalari ham paydo bo‘ladi. Bu esa molekullar harakatining statistik xarakterda bo‘lishi natijasida yorug‘likning to‘lqin uzunligiga nisbatan kichik bo‘lgan hajmlarda biror yo‘nalishda har qanday boshqa yo‘nalishlardagiga qaraganda bir xil joylashgan molekullar soni ko‘p bo‘lib qolganini bildiradi. Anizotropiya fluktuatsiyalarining vujudga kelishida molekulani tebranma (juda kichik amplitudali tebranishlar) harakatining hissasini ham e’tiborga olish kerak bo‘ladi. Xususan, molekulaning tebranma harakatlari ta’siri natijasidagi fluktuatsiyalar MS spektrining anizotrop tashkil etuvchisini hosil bo‘lishida o‘z hissasini qo‘shishi kerak. Anizotrop molekullarning tebranma harakatlarining hissasini nazariy hisoblangan va ma’lum

temperaturadagi eksperiment asosida topilgan spektral konturlarning ulushi qiymatlarini bilgan holda hisoblash mumkin:

$$\alpha_{ayl.} = \frac{1}{1+\gamma}, \quad \alpha_{teb.} = \frac{\gamma}{1+\gamma} \text{ ga teng bo'lib, } \gamma = \frac{1}{\alpha_2^{naz.}} \left( \frac{\alpha_1^{naz.}}{\alpha_1^{eksp.}} - 1 \right) \quad (4)$$


Piridin uchun  $\alpha_{ayl.}$  va  $\alpha_{teb.}$  hissalarini qiymatlari turli temperaturalarda hisoblanib, quyidagi natijalar olindi: 20÷150 °C oralig'ida aylanma harakat  $\alpha_{ayl.}$  hissasi 0,91 dan 0,52 qiymatga kamayib borgan. Tebranma harakat  $\alpha_{teb.}$  hissasi esa 0,09 dan 0,47 qiymatga oshib borgan. Bu natijalar va ilmiy adabiyotlardagi benzol uchun kritik temperaturada olingan tajriba natijalariga ko'ra, anizotrop xossasiga ega bo'lgan muhit temperaturasi oshib borishi bilan, izotropik xossasini namoyon qila boshlaydi deb taxmin qilish mumkin.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Tarkibiga metil va galoid birikmalari kiritilgan organik uglevodorodlarda yorug'likning KS hamda IQ yutilish spektrlarining namoyon bo'lish mexanizmlari”**ga bag'ishlangan bo'lib, benzol va piridin hosilalari strukturasiidagi o'rin almashgan turli xil tabiatli funksional guruhlarning molekulani KS spektriga ta'sirini IQ yutilish spektrlari va kvant-kimyoviy nazariy hisoblashlar yordamida tadqiq qilish natijalari keltirilgan.



Benzol halqasiga bitta vodorod atomi o'rniga kiritilgan galoid xlor atomining KS spektriga ulushini, spektrning o'zgarishiga olib keluvchi va qo'shimcha hosil bo'lgan spektrlarni namoyon bo'lish qonuniyatlarini aniqlash maqsadida xlorbenzol suyuqligida eksperimental hamda nazariy tadqiqotlar o'tkazildi. Xlorbenzol molekulasi strukturasiining modeli 2-rasmda ko'rsatilgan. 3-rasmda xlorbenzol va etalon sifatida olingan benzolning eksperimental olingan KS spektri tasvirlangan.

Tadqiqot natijalari tahliliga ko'ra, xlorbenzol molekulasi uchun C-H simmetrik valent tebranishlari bilan bog'liq bo'lgan spektral chiziq eksperimental KS spektrida 3070  $\text{sm}^{-1}$  chastotada kuzatildi. Benzolning KS spektri bilan solishtirilganda +8  $\text{sm}^{-1}$  qiymatga yuqori chastota tomon siljiganligi aniqlandi. Spektral chiziqning bunday siljishi atomlar orasidagi kuch konstantasining ortishi natijasidir. 1-jadval tahlilidan ko'rinadiki, xlorbenzol C-H bog'i

uzunligi benzol C-H bog'lari uzunligidan biroz kamaygan. Masalan, C-Cl bog'lanishlariga qo'shni C<sub>2</sub>-H<sub>8</sub> va C<sub>6</sub>-H<sub>12</sub> bog'lari orasidagi uzunlik kamayishi qiymati 0,0025 Å (0,23 %)ga teng. Bizning fikrimizcha, yuzaga kelgan molekula ichidagi kuch konstantalarining o'zgarishiga aromatik halqaga kiritilgan xlor atomini, rezonans ta'sirlashuvi sabab bo'lgan.



**2-rasm.** Xlorbenzol molekulasi strukturasiining modeli.



**3-rasm.** Eksperimental olingan KS spektrlari: a) benzol, b) xlorbenzol.

C-Cl valent tebranishlari bilan bog‘liq spektral chiziq quyi chastotalar sohasida hosil bo‘lishi lozim, chunki C-Cl bog‘i uzunligi C-H bog‘i uzunligidan 0,6797 Å (68 %)ga uzunroq va bu kuch konstantasining kamayishiga olib keladi. Xlor elektromanfiyligi yuqori atom bo‘lganligi tufayli C-Cl bog‘i qutblanadi, bu dipol momentining qiymatini o‘zgarishi esa IQ yutilish spektrida intensivligi yuqori bo‘lgan spektral chiziqning kuzatilishiga olib keladi.

### 1-jadval.

Benzol va xlorbenzol molekulasida atomlari orasidagi nazariy hisoblangan bog‘ uzunligi ( $r$ , Å) va ularni solishtirish natijalari

Molekula	C <sub>1</sub> -C <sub>2</sub>	C <sub>2</sub> -C <sub>3</sub>	C <sub>3</sub> -C <sub>4</sub>	C <sub>4</sub> -C <sub>5</sub>	C <sub>5</sub> -C <sub>6</sub>	C <sub>6</sub> -C <sub>1</sub>	C <sub>6</sub> -H <sub>7</sub> , C <sub>1</sub> -H <sub>6</sub>	C <sub>2</sub> -H <sub>8</sub>	C <sub>3</sub> -H <sub>9</sub>	C <sub>4</sub> -H <sub>10</sub>	C <sub>5</sub> -H <sub>11</sub>	C <sub>6</sub> -H <sub>12</sub>
Benzol - C <sub>6</sub> H <sub>6</sub>	1,3939	1,3939	1,3938	1,3939	1,3939	1,3938	1,0845	1,0847	1,0845	1,0845	1,0847	1,0845
Xlorbenzol- C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> Cl	1,3910	1,3932	1,3934	1,3933	1,3933	1,3909	1,7619	1,0822	1,0839	1,0837	1,0839	1,0822
$\Delta$ , %	-0,2	-0,04	-0,03	-0,04	-0,04	+0,007	+68	-0,23	-0,05	-0,07	-0,07	-0,21


